

SOLIQ INTIZOMINI BOSHQARISHNING ASOSIY FUNKSIYALARI VA PRINSIPLARI

Ismatov Ismatillo Inoyatovich

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti I bosqich magistranti.

E-pochta: isma-784@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15628387>

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq intizomini boshqarishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy boshqaruvdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Soliq intizomini boshqarishning asosiy funksiyalari – soliqlarni to'plash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, soliq to'lovchilar bilan ishlash, shuningdek, soliq siyosatining shaffofligini ta'minlash jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada soliq boshqaruvida amal qilinadigan asosiy prinsiplar – qonuniylik, adolatlilik, ochiqlik va samaradorlik prinsiplariga e'tibor qaratilgan. Mavjud tizimdagi muammolar va kamchiliklar ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola soliq tizimini takomillashtirish, soliq tushumlarini oshirish va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: soliq intizomi, soliq siyosati, soliq organlari, soliq to'lovchi, soliq funksiyalari, boshqaruv prinsiplari, soliq nazorati, raqamli soliq tizimi, samaradorlik, shaffoflik.

MAIN FUNCTIONS AND PRINCIPLES OF TAX DISCIPLINE MANAGEMENT

Abstract. This article discusses the theoretical foundations of tax discipline management, its role and significance in economic management. The main functions of tax discipline management - tax collection, control over compliance with tax legislation, work with taxpayers, as well as the processes of ensuring the transparency of tax policy - are analyzed. The article also focuses on the basic principles of tax management - the principles of legality, fairness, openness and efficiency. The problems and shortcomings of the existing system are considered and proposals are developed to eliminate them. The article is aimed at improving the tax system, increasing tax revenues and introducing effective management mechanisms.

Keywords: tax discipline, tax policy, tax authorities, taxpayer, tax functions, management principles, tax control, digital tax system, efficiency, transparency.

ОСНОВНЫЕ ФУНКЦИИ И ПРИНЦИПЫ УПРАВЛЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ДИСЦИПЛИНОЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы управления налоговой дисциплиной, ее роль и значение в управлении экономикой. Анализируются основные функции управления налоговой дисциплиной - сбор налогов, контроль за соблюдением налогового законодательства, работа с налогоплательщиками, а также процессы обеспечения прозрачности налоговой политики. В статье также уделяется внимание основным принципам налогового менеджмента - принципам законности, справедливости, открытости и эффективности. Рассматриваются проблемы и недостатки существующей системы и разрабатываются предложения по их устранению. Статья направлена на совершенствование налоговой системы, увеличение налоговых поступлений и внедрение эффективных механизмов управления.

Ключевые слова: налоговая дисциплина, налоговая политика, налоговые органы, налогоплательщик, налоговые функции, принципы управления, налоговый контроль, цифровая налоговая система, эффективность, прозрачность.

Kirish. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning eng muhim vositalaridan biri bu – soliq tizimidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetini shakllantirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, tadbirkorlik muhitini tartibga solish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda soliqlarning o'рни beqiyosdir. Soliq tushumlarining to'g'ri va o'z vaqtida byudjetga tushishini ta'minlash, soliq qonunchiligi talablari bajarilishi ustidan tizimli nazorat olib borish esa soliq intizomini boshqarishning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Soliq intizomini boshqarish deganda soliq organlari tomonidan soliqlarni belgilangan tartibda yig'ish, nazorat qilish, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solish, ularning huquqlari va majburiyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, soliq qonunchiligini to'g'ri qo'llashga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi tushuniladi. Ushbu boshqaruv jarayoni qat'iy qonunchilik asosida amalga oshiriladi va davlat moliyaviy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq intizomini boshqarish oldida yangi talab va vazifalar paydo bo'lmoqda. Xususan, soliq to'lovchilarning o'z vaqtida va to'liq hisobot berishini ta'minlash, soliqlardan bo'yin tovlashning oldini olish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, hamda soliq yuki adolatli taqsimlanishini kafolatlash kabi dolzarb masalalar soliq boshqaruvidan yuqori samaradorlikni talab qilmoqda. Shu bois, mazkur maqolada soliq intizomini boshqarishning mazmuni, uning asosiy funksiyalari va amal qilinadigan prinsiplar chuqur tahlil qilinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi – soliq ma'muriyatchiligi tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy asoslarni o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va unda amalga oshirilayotgan intizomini boshqarishning sohasidagi islohotlar qaraladi. Tadqiqot predmeti – soliq intizomini boshqarishning funksiyalari, prinsiplar tizimi hamda ularning samaradorligini oshirish yo'llaridir.

Asosiy qism. Soliq intizomini tushunchasi va uning mohiyati

Soliq intizomi deganda yuridik va jismoniy shaxslarning amaldagi soliq qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda, o'z vaqtida va to'liq soliq to'lovlarini amalga oshirishi tushuniladi.¹

Bu tizim nafaqat byudjet daromadlarini to'plashga xizmat qiladi, balki iqtisodiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlash, moliyaviy tartib-intizomni mustahkamlash hamda soya iqtisodiyotini qisqartirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Batafsil qilib aytganda, soliq intizomi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Soliq qonunchiligini bilish va unga amal qilish – soliq to'lovchilar o'zlariga tegishli soliq majburiyatlarini bilib, ularni bajarishi kerak.
2. Hisobotlarni to'g'ri va o'z vaqtida topshirish – deklaratsiyalar, soliq hisoboti va boshqa hujjatlar qonun belgilagan muddatlarda topshirilishi lozim.
3. Soliqlarni o'z vaqtida to'lash – soliq to'lovlari muddati o'tmasdan to'lanishi kerak.
4. Yashirin daromadlarni bildirmaslikdan tiyilish – daromadlarni yashirish, noto'g'ri ma'lumotlar berish soliq intizomining buzilishi hisoblanadi.

¹ Karimov M. "Soliq tizimining samaradorligini oshirishda ma'muriy islohotlarning o'рни". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–50.

5. Nazorat va tekshiruvlarga ochiqlik bilan munosabatda bo'lish – soliq organlarining qonuniy talablarini bajargan holda, ular bilan hamkorlik qilish.

Soliq intizomini boshqarishning asosiy funksiyalari

Soliq intizomini bir qator muhim funksiyalarni bajaradi.

Ularga quyidagilar kiradi:

1. Hisobga olish va ro'yxatga olish funksiyasi – Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olinishi, ularning faoliyati ustidan monitoring yuritilishi.

2. Axborot va tahliliy funktsiya – Soliq to'lovchilarning faoliyati haqida ma'lumot to'plash, tahlil qilish va soliq siyosatini takomillashtirish uchun foydalanish.

3. Nazorat funksiyasi – Soliq qonunchiligiga amal qilinishi, hisob-kitoblarning to'g'riligi, soxta operatsiyalarning oldini olish uchun tekshiruvlar o'tkazish.

4. Ma'muriy jazo funksiyasi – Qonun buzilishi holatlarida jarima, penya yoki boshqa ma'muriy choralarning qo'llanilishi.

5. Axborot-kommunikatsion funksiyasi – Soliq to'lovchilar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish, ularni xabardor qilish va maslahat berish.²

Soliq intizomini boshqarishning asosiy prinsiplari

Zamonaviy soliq boshqaruvi bir qator asosiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

Qonuniylik prinsipi – Soliq organlari barcha faoliyatini amaldagi qonunchilikka asoslangan holda olib borishi kerak.

Adolatlilik va xolislik prinsipi – Soliq to'lovchilarga nisbatan teng va xolis yondashuv ta'minlanadi.

Shaffoflik prinsipi – Soliq jarayonlari ochiq, tushunarli va kuzatiladigan bo'lishi lozim.

Samaradorlik prinsipi – Soliq yig'imi va nazoratining minimal xarajatlar evaziga maksimal natija berishi kerak.

Raqamlashtirish va innovatsiya prinsipi – Elektron tizimlar orqali tez, aniq va qulay boshqaruvga erishish.³

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy va amaliy adabiyotlarda soliq intizomini boshqarishga oid ko'plab qarashlar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi farmonlarida soliq organlarining ochiqligini oshirish, ularni raqamlashtirish va soliq to'lovchilar bilan samarali muloqot o'rnatish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan. M. Karimov (2021) o'z tadqiqotida soliq intizomini boshqarishning markazlashtirilgan va avtonom shakllarini taqqoslab, markazlashtirilgan tizim byudjet intizomi uchun samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, N. Xudoyberdiyeva (2022) o'z maqolasida soliq intizomini boshqarishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi orqali soliq tushumlarining oshganini misollar bilan keltirgan. Xalqaro amaliyotda esa OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashda "Tax Administration Diagnostic Assessment Tool" (TADAT) tizimidan foydalanishni taklif qilmoqda.

² Tursunov I. "Soliq boshqaruvi takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari". // Iqtisodiy tahlil jurnali. – 2020. – №4. – B. 33–38.

³ Raximova D. "Soliq siyosatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillari". // Ilm-fan va amaliyot. – 2021. – №1. – B. 17–20.

Bu adabiyotlar soliq boshqaruvidagi yondashuvlar xilma-xilligini, lekin umumiy maqsad – samaradorlikka erishish ekani bilan birlashishini ko'rsatadi.

Mushohada

Tahlillardan ko'rinadiki, soliq intizomini davlat moliyaviy siyosatining eng muhim bo'g'inidir. Uning samaradorligi nafaqat byudjetga tushumlar hajmiga, balki butun iqtisodiy muhitning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Mavjud soliq tizimida bir qancha yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim kamchiliklar ham mavjud: soliq to'lovchilar bilan aloqa yetarlicha interaktiv emas, ayrim hududiy soliq organlari zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanmayapti, ma'lumotlar bazalari integratsiyasi to'liq yo'lga qo'yilmagan. Shu bois, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish zarur:

Soliq to'lovchilar uchun interaktiv va mobil xizmatlarni kengaytirish; Soliq xodimlari malakasini oshirish va xizmat ko'rsatish madaniyatini rivojlantirish;

Yagona raqamli platforma asosida soliq hisoboti va nazoratini amalga oshirish;

Soliq to'lovchilar ongini oshirishga qaratilgan axborot-ma'rifat ishlarini kuchaytirish.

Xulosa. Soliq intizomini boshqarish har qanday davlatning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, samarali soliq intizomini boshqarish orqali soliqlarni to'plash jarayoni takomillashtiriladi, soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi, soliq qonunchiligi ijrosi ta'minlanadi va byudjetga tushumlar barqaror ravishda oshib boradi.

Tadqiqot davomida soliq intizomini boshqarishning asosiy funksiyalari – soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish, soliq hisoboti va nazoratini amalga oshirish, qonunbuzarliklar bo'yicha chora ko'rish, hamda soliq axboroti bilan ishlash kabi jarayonlar tahlil qilindi.

Shuningdek, bu tizimda amal qilinadigan prinsiplardan qonuniylik, adolatlilik, shaffoflik va samaradorlik eng asosiylari ekaniga e'tibor qaratildi.

Hozirgi vaqtda soliq tizimini yanada takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, inson omilini kamaytirish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda soliq to'lovchilar bilan muloqotni soddalashtirish zarur. Bunda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar asosida milliy soliq intizomini isloh qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, soliq intizomini boshqarish samaradorligini oshirish – bu faqat soliq organlari emas, balki butun jamiyatning manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Shu boisdan, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va mavjud muammolarga tizimli yondashuv bilan yechim topish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy kontekstga moslashtirib qo'llash – soliq intizomini boshqarish yanada samarali qilishning muhim omillaridan biridir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda "Soliq-ma'muriyatchiligi tizimini isloh qilish to'g'risida"gi PF-6121-son Farmoni.
3. Karimov M. "Soliq tizimining samaradorligini oshirishda ma'muriy islohotlarning o'rni". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–50.

4. Xudoyberdiyeva N. "Raqamli soliq boshqaruvi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar". // Moliya bozorlari. – 2022. – №2. – B. 21–26.
5. OECD. "Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies". – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Tursunov I. "Soliq boshqaruvini takomillashtirishning zamonaviy yoʻnalishlari". // Iqtisodiy tahlil jurnali. – 2020. – №4. – B. 33–38.
7. Jahon banki. "Doing Business 2020: Soliq tizimi samaradorligi boʻyicha hisobot". – Washington, 2020.
8. Raximova D. "Soliq siyosatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillari". // Ilm-fan va amaliyot. – 2021. – №1. – B. 17–20.